

XORIJIY KUTUBXONALARDA MOBIL AXBOROT XIZMATLARI: RIVOJLANISH MODELLARI VA USTUVOR TENDENSIYALAR

Ibodullayeva Mohinur Anvar qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Kutubxona-axborot
faoliyati fakulteti 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Grebenyuk Martin Valentinovich

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti, Kutubxona-axborot
faoliyati kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada xorijiy kutubxonalarda mobil axborot xizmatlarini joriy etish va ulardan foydalanish tajribasi tahlil qilinadi. AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya hamda Qatar kutubxonalari misolida mobil ilovalar va mobil platformalarning funksional imkoniyatlari, foydalanuvchiga yo'naltirilganligi, inklyuzivligi va integratsion xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijasida mobil kutubxona xizmatlarining alohida yechimlardan yagona ekotizimga o'tishi, ko'p tillilik, masofaviy va uzluksiz foydalanish, raqamli madaniy merosni ommalashtirish hamda imkoniyati cheklangan foydalanuvchilar ehtiyojlarini hisobga olish kabi ustuvor yo'nalishlar aniqlanadi. Maqolada mobil xizmatlarning zamonaviy kutubxonani faqat resurslarni saqlovchi muassasadan foydalanuvchi va axborot o'rtasidagi faol raqamli vositachiga aylantirayotgani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: mobil kutubxona xizmatlari, mobil ilova, raqamli kutubxona, xorijiy tajriba, kutubxona axborot xizmati, inklyuzivlik, raqamli ekotizim, foydalanuvchi ehtiyojlari.

Аннотация: В статье анализируется зарубежный опыт внедрения и использования мобильных информационных сервисов библиотек. На примере

библиотек США, Великобритании, Германии, Франции, Южной Кореи и Катара раскрываются функциональные возможности мобильных приложений и платформ, их пользовательская ориентированность, инклюзивность и интеграционный потенциал. В результате исследования выявлены такие приоритетные направления, как переход от разрозненных решений к единой экосистеме, многоязычность, удалённый и непрерывный доступ, популяризация цифрового культурного наследия и учёт потребностей пользователей с ограниченными возможностями. Обосновывается, что мобильные сервисы превращают современную библиотеку из простого хранилища ресурсов в активного цифрового посредника между пользователем и информацией.

Ключевые слова: мобильные библиотечные сервисы, мобильное приложение, цифровая библиотека, зарубежный опыт, библиотечно-информационное обслуживание, инклюзивность, цифровая экосистема, потребности пользователей.

Abstract: The article analyzes foreign experience in the implementation and use of mobile information services in libraries. Using the examples of libraries in the United States, Great Britain, Germany, France, South Korea, and Qatar, the functional capabilities of mobile applications and platforms, their user orientation, inclusiveness, and integration potential are examined. The study identifies key trends such as the transition from fragmented solutions to unified ecosystems, multilingual access, remote and continuous use, promotion of digital cultural heritage, and attention to the needs of users with disabilities. The article argues that mobile services transform the modern library from a passive repository of resources into an active digital intermediary between the user and information.

Keywords: mobile library services, mobile application, digital library, foreign experience, library information service, inclusiveness, digital ecosystem, user needs.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi kutubxona faoliyatining mazmuni va shakliga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda

foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyoji nafaqat tezkorlik, balki istalgan joy va vaqtda foydalanish imkoniyati bilan ham belgilanmoqda. Shu jihatdan mobil texnologiyalar kutubxona xizmatlarini modernizatsiya qilishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda mobil ilovalar, moslashuvchan veb-interfeyslar, push-xabarnomalar, audio va elektron resurslarga masofaviy kirish imkoniyatlari kutubxona xizmatining oddiy qo'shimcha elementi emas, balki uning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, mobil kutubxona xizmatlari foydalanuvchiga qulaylik yaratish, axborot resurslaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish, kutubxona va kitobxon o'rtasidagi aloqani mustahkamlash hamda raqamli madaniy merosni ommalashtirishda katta ahamiyatga ega. Shu bois xorijiy tajribani o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir.

Ushbu maqolaning maqsadi xorijiy kutubxonalarda mobil axborot xizmatlarini joriy etish tajribasini tahlil qilish, ularning asosiy rivojlanish modellari va ustuvor tendensiyalarini aniqlashdan iborat.

Mobil kutubxona xizmatlari eng avvalo AQSh universitet kutubxonalarida faol rivojlangan. Aynan ushbu mamlakatda mobil veb-saytlar va ilovalar kutubxona xizmatining istiqbolli yo'nalishi sifatida nisbatan erta shakllangan. Massachusetts texnologiya instituti va Stenford universiteti kutubxonolari mobil xizmatlarni yo'lga qo'ygan dastlabki muassasalar qatoriga kiradi. Bu tajriba keyinchalik kengayib, oliy ta'lim kutubxonolari faoliyatida barqaror modelga aylangan.

AQSh tajribasining muhim jihati shundaki, mobil xizmatlar faqat katalog yoki elektron kitoblar bilan cheklanib qolmagan. U yerda mobil imkoniyatlar ma'lumotlar bazalari, matnli xabar almashinuvi, QR-kodlar, mustaqil mobil ilovalar, hatto ayrim hollarda virtual reallik elementlari bilan boyitilgan. Demak, Amerika modeli mobil kutubxona xizmatini ko'p funksiyali, foydalanuvchi kundalik hayotiga chuqur singib ketgan raqamli vosita sifatida shakllantirgan.

AQShda ayniqsa Kongress kutubxonasi tajribasi e'tiborga loyiq. Ushbu kutubxona o'zining mobil tashabbuslari orqali raqamli kolleksiyalarni keng jamoatchilikka ochib

bergan. LOC Collections ilovasi qo'lyozmalar, fotosuratlar, xaritalar va audioarxivlarga masofadan murojaat qilish imkonini yaratadi. BARD Mobile esa ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi foydalanuvchilar uchun audiokitoblar hamda Brayl formatidagi resurslarni taqdim etadi. Bu holat mobil xizmatlarda inklyuzivlik masalasi qanchalik muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Shuningdek, AQSh ommaviy kutubxonalarining Libby platformasi bilan integratsiyalashgani ham diqqatga sazovordir. Mazkur platforma foydalanuvchiga elektron va audio kitoblarni o'qish, tinglash, turli qurilmalar o'rtasida o'qish jarayonini sinxronlashtirish, shaxsiy javonlar yaratish imkonini beradi. Natijada kutubxona foydalanuvchining mobil hayot tarziga moslashgan xizmat ko'rsatuvchi tizimga aylanadi.

Buyuk Britaniya tajribasi mobil kutubxona xizmatlarining milliy resurslar va mahalliy xizmatlarni birlashtira olish imkonini namoyon etadi. Britaniya kutubxonasi tomonidan taklif etilgan BL Sounds ilovasi katta hajmdagi ovozli kolleksiyalarga kirish imkonini beradi. Intervyular, musiqiy yozuvlar va radioeshittirishlar singari kontentning mobil shaklda taqdim etilishi foydalanuvchilarning kutubxona resurslari bilan o'zaro aloqasini sezilarli darajada kengaytiradi.

Buyuk Britaniyadagi yana bir muhim yechim – BorrowBox ilovasidir. Ushbu platforma yagona elektron bilet asosida turli ommaviy kutubxonalar resurslaridan foydalanish imkonini yaratadi. Bunda foydalanuvchi turli muassasalar resurslaridan yagona muhit orqali foydalanadi va ularning institutsional farqini deyarli sezmaydi. Demak, britan modelida mobil xizmatning asosiy ustunligi resurslarni bitta raqamli muhitga birlashtirish va foydalanuvchi uchun soddalashtirilgan interfeys yaratishdan iborat.

Germaniya tajribasida esa mobil xizmatlar kutubxona, muzey va arxiv resurslarini integratsiya qilish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Deutsche Digitale Bibliothek platformasi turli institutlarga mansub millionlab obyektlarni yagona kirish nuqtasi orqali taqdim etadi. Bu yondashuv kutubxona xizmatining an'anaviy chegaralarini kengaytirib, uni madaniy merosni boshqarishning raqamli markaziga aylantiradi. Mobil ilovaning

mavjudligi esa foydalanuvchiga ushbu ko‘p tarmoqli resurslardan istalgan joydan foydalanish imkonini beradi.

Fransiyada Gallica loyihasi mobil kutubxona xizmatlarining ilmiy va ommaviy foydalanishga yo‘naltirilgan imkoniyatlarini muvaffaqiyatli uyg‘unlashtiradi. Gallica App orqali millionlab kitoblar, davriy nashrlar, xaritalar va nota qo‘lyozmalariga murojaat qilish mumkin. Qidiruvning muallif, mavzu va davr bo‘yicha tashkil etilgani foydalanuvchiga qulay navigatsiyani ta‘minlaydi. Shuningdek, oflayn rejim mavjudligi mobil xizmatlarning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Fransiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mobil kutubxona xizmatlari nafaqat tezkor kirish vositasi, balki ilmiy merosni zamonaviy auditoriyaga mos shaklda yetkazib berish instrumentidir.

Janubiy Koreya tajribasi mobil xizmatlarni idoralararo hamkorlik asosida rivojlantirish mumkinligini yaqqol ko‘rsatadi. KOLIS-NET tizimi ommaviy va universitet kutubxonalari kataloglarini yagona tizimga birlashtiradi. Mobil ilova orqali foydalanuvchi qidiruvni amalga oshirishi, raqamli nusxalarni olishi, materiallarni bron qilishi va onlayn tadbirlarda ishtirok etishi mumkin. Mazkur model mobil kutubxona xizmatlarida “uzluksiz axborot muhiti”ni shakllantiradi. Foydalanuvchi uchun xizmatning qayerda yaratilgani emas, balki uning qulay va uzviy ishlashi muhim bo‘ladi.

Qatar Milliy kutubxonasi tajribasi esa mobil xizmatlarning ko‘p tillilik va madaniy kommunikatsiya bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. QNL App katalog bo‘yicha qidiruv, zallar va tadbirlarni bron qilish, elektron kitoblar, jurnallar va audioyozuvlardan foydalanish imkonini beradi. Uning ko‘p tilli interfeysi turli auditoriyalarni qamrab olishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur platforma raqamli kutubxona xizmatining madaniy diplomatiya vositasi bo‘lishi mumkinligini ham namoyish etadi. Mazkur holatda kutubxona faqat axborot taqdim etuvchi subyekt emas, balki milliy madaniyatni xalqaro miqyosda targ‘ib qiluvchi subyektga aylanadi.

Ko‘rib chiqilgan tajribalar mobil kutubxona xizmatlari rivojida bir nechta barqaror tendensiyalar mavjudligini ko‘rsatadi.

Birinchidan, alohida va tor vazifali mobil yechimlardan kompleks raqamli ekotizimlarga o'tish kuzatilmoqda. Oldin mobil xizmat ko'pincha katalogning mobil versiyasi yoki oddiy elektron javon vazifasini bajargan bo'lsa, hozir u turli resurslar, xizmatlar va muassasalarni birlashtiruvchi markaziy platformaga aylanmoqda. Germaniya va Janubiy Koreya misolida aynan shu integratsion yondashuv kuchli namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, mobil kutubxona xizmatlarida inklyuzivlikning ahamiyati ortib bormoqda. AQSh tajribasida nogironligi bo'lgan foydalanuvchilar uchun maxsus ilovalar yaratilgan bo'lsa, Qatar tajribasida ko'p tillilik orqali turli ijtimoiy va madaniy guruhlar ehtiyoji hisobga olingan. Bu esa zamonaviy kutubxona xizmatlari loyihalanayotganda universal foydalanish tamoyili markaziy o'rin egallashini anglatadi.

Uchinchidan, mobil xizmatlar funksional jihatdan tobora boyib bormoqda. Elektron resurslarni o'qish va tinglashdan tashqari, qidiruv, bron qilish, shaxsiy kabinet, tavsiyalar, bildirishnomalar, onlayn tadbirlarda ishtirok etish, ayrim hollarda kengaytirilgan yoki virtual reallik elementlaridan foydalanish kabi imkoniyatlar ham shakllanmoqda. Bu holat mobil ilovaning "qo'shimcha servis" maqomidan chiqib, kutubxonaning asosiy raqamli kommunikatsiya kanali darajasiga ko'tarilganini bildiradi.

To'rtinchidan, mobil xizmatlar raqamli madaniy merosni ommalashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Britaniya, Fransiya va Germaniya misollarida ko'rish mumkinki, mobil ilova foydalanuvchini noyob kolleksiyalar, ovozli arxivlar, xaritalar, qo'lyozmalar va boshqa tarixiy materiallar bilan bog'laydi. Natijada kutubxona fondlari jismoniy hudud bilan cheklanib qolmaydi, balki global axborot maydoniga chiqadi.

Xorijiy tajriba tahlili mobil kutubxona xizmatlari zamonaviy kutubxonachilikning strategik yo'nalishlaridan biriga aylanganini ko'rsatadi. AQSh tajribasi mobil xizmatlarning funksional kengligi va inklyuzivligini, Buyuk Britaniya va Yevropa mamlakatlari tajribasi yagona raqamli interfeys va madaniy merosni integratsiyalash imkoniyatini, Janubiy Koreya va Qatar misollari esa ko'p tillilik, uzluksiz xizmat va madaniy kommunikatsiya salohiyatini yaqqol namoyish etadi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, mobil kutubxona xizmati endilikda shunchaki texnologik yangilik emas. U kutubxona va foydalanuvchi o'rtasidagi munosabatni qayta tashkil etuvchi, axborotdan foydalanish shakllarini yangilovchi va kutubxonaning ijtimoiy-madaniy rolini kengaytiruvchi omildir. Zamonaviy kutubxona aynan mobil xizmatlar orqali foydalanuvchiga yaqinlashadi, uning ehtiyojiga moslashadi va raqamli axborot makonida faol ishtirokchiga aylanadi.

Shu sababli xorijiy tajribani o'rganish va undan ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish milliy kutubxona tizimida mobil xizmatlarni rivojlantirish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Liu, Y. Q. Services to Mobile Users: The Best Practice from the Top-Visited Public Libraries in the US / Y. Q. Liu, S. Lewis // Information Technology and Libraries. – 2023. – Vol. 42, № 1. – P. 1-25.
2. Quade, L. Kulturerbe suchen und finden im Portal Deutsche Digitale Bibliothek: Herausforderungen und Lösungsansätze / L. Quade, D. Schäfer // NFD Information-Wissenschaft und Praxis. – 2025. – Vol. 76. – P. 261-270.
3. Henry, A. How to Make Millions of Documents Accessible Through AI and a Digital Library? The Case of Gallica, French National Library / A. Henry // AI Innovations in Public Services. – Lille, Recherche Interdisciplinaire en Information et Communication, 2025. – P. 109-120.
4. Ким, Сун Иль. О деятельности Национальной цифровой библиотеки Кореи / Сун Иль Ким // INFOLIB. – 2017. – № 2. – С. 28-31. – (Практика).
5. Noel, V. Utilization of Social Media Platforms among Academic Libraries in Promoting Library Resources and Services in Qatar / V. Noel, M. L. D. Masalinto // International Journal of Innovative Science and Research Technology. – 2025. – Vol. 15. – P. 147-152.

6. Мартин В. Г. Видеохостинг как маркетинговый инструмент в продвижении библиотечных услуг //Вестник Библиотечной Ассамблеи Евразии. – 2025. – №. 2. – С. 50-55.
7. Гребенюк М. В. Международные практики применения маркетинговых технологий в библиотечно информационной деятельности //Строительство и образование. – 2025. – Т. 4. – №. 4. – С. 129-139.
8. Grebenyuk M. V. The Emergence, Development, and Transformation of Library Marketing in European Countries //Miasto Przyszlosci. - 2024. - Т. 52. - С. 116-122.
9. Гребенюк, М. В. Информационные технологии в образовании: взаимодействие педагога с информационно-коммуникационными технологиями и совершенствование информационной компетентности / М. В. Гребенюк // Информационные технологии. Проблемы и решения. - 2020. - № 3(12). - С. 36-40.